

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY  
DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUSAYEV BEKZOD MURODOVICH**

**MIRZACHO‘L IQTISODIY RAYONI SHAHARLARI RIVOJLANISHI VA  
JOYLANISHINING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

**11.00.02-Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)  
on geographical sciences**

**Musayev Bekzod Murodovich**

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy  
geografik xususiyatlari.....3

**Мусаев Бекзод Муродович**

Экономико - географические особенности развития и размещения городов  
Мирзачульского экономического района.....19

**Musayev Bekzod Murodovich**

Economic geographical characteristics of the development and location of the  
cities of Mirzachul economic region.....37

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....41

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY  
DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUSAYEV BEKZOD MURODOVICH**

**MIRZACHO‘L IQTISODIY RAYONI SHAHARLARI RIVOJLANISHI VA  
JOYLANISHINING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

**11.00.02-Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Gr197 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va "Ziyonet" Axborat ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tojiyeva Zulxumor Nazarovna**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mamatqulov Abdurashid Voxidovich**  
iqtisod fanlari doktori, professor

**Qurbonov Pahlavon Rustamovich**  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 24-oktabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent Universitet ko'chasi, 4-uy Tel.: (+99871) 227-12-14, faks: (+99871) 246-02-24; E-mail: ik-geografiya.nuu@mail.ru. (O'zbekiston Milliy universiteti, Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№149 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy Tel.: (+99871) 246-67-71

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 10-oktabr kuni tarqatildi.  
(2023-yil 10-oktabrdagi 55-raqamli reyestr bayonnomasi).

**SH.M.Sharipov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, g.f.d., dotsent

**K.A.Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, g.f.f.d.(Phd)

**M.T.Mirakmalov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, g.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ro‘y berayotgan globallashuv, xalqaro migratsiyaning faollashuvi, urbanizatsiyaning jadal rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘lishi bilan birga urbanizatsiyalashgan hududlarda turli xil iqtisodiy va ijtimoiy-ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “2030-yilga qadar shaharlarning barqaror rivojlanishi strategiyasida shaharlardagi iqtisodiy-demografik, ijtimoiy-ekologik, transport va boshqa ko‘plab muammolar keskinlashuvining oldini olishga qaratilgan vazifalar belgilangan”<sup>1</sup>. Mazkur vazifalarning yechimida shaharlarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, global sanoatlashish, industrial markazlari hamda shaharlarning jadal rivojlanishi, ularni rejalashtirishga oid hududiy tadqiqotlar olib borish alohida dolzarblik kasb etadi.

Jahonda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan, shaharlarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni va ularning hududiy xususiyatlarini aniqlash orqali shaharlarni barqaror ijtimoiy-ekologik rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada, shahar aholi manzilgohlari hududiy-demografik tarkibini va shaharlarning funksiyalarini takomillashtirish, shaharlarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini ko‘tarish, ularning rivojlanishi va joylanishiga ta’sir etuvchi geografik omillarning rolini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Respublikamizda shaharlarni, shahar infratuzilmasini yanada rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda va sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida “Hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish. Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi “Shaharlar qulayligi” indeksini joriy etish. Shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va “Aqlli shahar” konsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish”<sup>2</sup> yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, yangi o‘zlashtirilgan hududlarda shahar aholi manzilgohlarini rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy geografik xususiyatlarini tadqiq etish, ularni kompleks rivojlantirish hisobiga barqaror iqtisodiy o‘shishini ta’minlashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5623-son Farmoni va 2019-yil 4-iyundagi “Respublika bo‘ysunuvidagi shaharlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5738-sonli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-yanvardagi “Shaharlar va shahar posyolkalari hududlarini rivojlantirish va qurish bo‘yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup><https://unhabitat.org/>

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli Farmoni.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Shaharlar rivojlanishi va joylanishini tadqiq etishning ilmiy asoslari xorijiy olimlardan I.Tyunen, A.Soria, A.Veber, E.Govard, P.Geddes, E.Burges, V.Kristaller, X.Xoyt, S.Kulin, F.Perru A.Lyosh, J.Gottman, K.Doksiadis K.Linch, R.Merfi, F.Gibbert, U.Alonso va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ular tadqiqotlarida shaharlar rivojlanishi va joylanishining ilmiy nazariyalarini hamda ularning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan.

MDH mamlakatlarida shaharlar muammolari bo'yicha juda keng ko'lamdagi tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada, eng avvalo, N.N.Baranskiy, N.A.Ladovskiy, O.A.Konstantinov, Yu.G.Saushkin, D.I.Bogorad, A.P.Buryan, V.G.Davidovich, V.Sh.Djaoshvili, I.M.Mayergoyz, N.I.Naymark, G.M.Lappo, Ye.Ye.Leyzerovich, F.M.Listengurt, Ye.N.Persik, B.S.Xorev, A.E.Gutunov kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari va g'oyalarini keltirish o'rinli.

O'zbekistonda shaharlarni rivojlanishi va joylanishini geografik o'rganish masalalari bo'yicha E.A.Axmedov, O.B.Ata-Mirzayev, T.I.Raimov, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, Z.H.Rayimjonov, N.M.Mamatqulov, S.S.Zokirov va boshqa mutaxassislar shug'ullanishgan. Alohida hududlar bo'yicha urbanizatsiya muammolari Z.T.Abdalova, M.M.Egamberdiyeva, A.M.Mavlonov, S.K.Tashtayeva, P.R.Qurbonov va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Ushbu dissertatsiya Mirzacho'l iqtisodiy rayoni urbanizatsiya jarayonlari, shahar aholi manzilgohlarining rivojlanishi va joylanish muammolari, ularning istiqbolda rivojlanishini belgilash masalalariga bag'ishlanganligi bilan yuqoridagi qayd etilgan tadqiqotlardan farq qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar rejasining «Mirzacho'l vohasi tabiiy resurslari (shamol, suv va quyosh radiatsiyasi) asosida noan'anaviy energiya ishlab chiqarish imkoniyatlarini tadbiq qilish» (2021 y.) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlarining rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy geografik xususiyatlarini baholash va undan samarali foydalanishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

shaharlar joylanishi va rivojlanishining nazariy jihatlari, O'zbekiston Respublikasida shahar aholi manzilgohlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini tadqiq etish;

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari hududiy tashkil etilishida geografik omillarning rolini asoslash;

iqtisodiy rayon shahar aholi manzilgohlari soni, funksional turlari va klassifikatsiyasidagi, demografik rivojlanishidagi o'zgarishlarni tahlil qilish;

shahar aholi manzilgohlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilash va ularning yechimiga oid ilmiy – amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishining asosiy istiqbol yo‘nalishlarini belgilash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni, shahar va shaharchalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shahar aholi manzilgohlarining rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy geografik xususiyatlarini aniqlash masalalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya tadqiqotida hududiy tahlil, statistik, kartografik, tarixiy, geografik taqqoslash, kuzatish, ekspeditsiya, modellashtirish, ekstrapolyatsiya, sotsiologik tadqiqot va GAT texnologiyalari kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

shaharlar hududlarini rivojlantirish (yerdan foydalanish, yerning kapitallashuvi, transport o‘qi, sanoat ishlab chiqarish) konsentrik zona modelining iqtisodiy rayon shaharlarida mos kelmasligi, shahar tarmoqlari yaxlit tizimi shakllanmaganligi nazariy asoslangan;

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalarining, oilaviy uy xo‘jaliklari, joylanishi, aholisi tabiiy harakatlarining geodemografik va iqtisodiy geografik qonuniyatlari geografik balandlik mintaqalari (cho‘l, adir) bo‘yicha taqsimlanishi aniqlangan;

Jizzax viloyatida urbanizatsiya jarayoniga ta‘sir etuvchi omillarni eng kichik kvadratlar usuliga asoslangan holda ko‘p omilli regressiya tenglamasi yordamida modellashtirilgan, shaharlar to‘ri va tarkibining (yaqin, o‘rta va uzoq muddatli) 2030, 2040, 2050-yillar prognozi ishlab chiqilgan;

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalarining urbanizatsiya darajasi va hududiy urbanistik, demografik tarkibi, shahar aholi manzilgohlarining mintaqalar bo‘yicha joylanishi kartalari ArcGIS dasturi asosida yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni urbanizatsiya darajasi va hududiy urbanistik tarkibi, shahar va shaharchalarining demografik tarkibining 1:1 200 000 masshtabli kartasi yaratilgan;

shahar aholi manzilgohlarining geografik balandlik mintaqalari bo‘yicha joylanishi 1:750 000 masshtabli kartasi, Jizzax shahar aglomeratsiyasining 1:400 000 masshtabli kartalari ArcGIS dasturida ishlab chiqilgan;

Jizzax viloyatida urbanizatsiya jarayoniga ta‘sir etuvchi omillarni eng kichik kvadratlar usuliga asoslangan holda ko‘p omilli regressiya tenglamasi yordamida modellashtirish orqali Jizzax viloyatida shahar aholisi sonining 100 ming kishiga ortishi urbanizatsiya jarayonini 6,8 % birlikka oshishiga hamda qurilish ishlari hajmining bir trillion so‘mga o‘sishi urbanizatsiya jarayonini 3 % o‘sishi bilan kuzatilishi aniqlangan;

iqtisodiy rayon shahar va shaharchalar aholisi soni 2050-yilgacha bo‘lgan prognozi ishlab chiqilgan. Prognoz natijalari asosida kelajakda shahar va shaharchalar

aholisining ko'payishi, ular maydonining kengayishi chegaralari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va Jizzax hamda Sirdaryo viloyatlari statistika boshqarmalari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, asosiy natijalar respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilganligi bilan asoslanadi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan karta, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining **ilmiy** ahamiyati shundaki, Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalarining eng kichik kvadratlar usuliga asoslangan holda ko'p omilli regressiya tenglamasi yordamida ishlab chiqilgan, shaharlar funksional turlari va klassifikatsiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining **amaliy** ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar, Mirzacho'l iqtisodiy rayoni urbanizatsiya darajasi va hududiy urbanistik tarkibi, shahar va shaharchalarining demografik tarkibi, shahar aholi manzilgohlarining mintaqalar bo'yicha joylanishi mavzuli kartalari hamda Jizzax viloyatida urbanizatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni modellashtirilishi Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalari rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta'lim tizimining tegishli yo'nalishlaridagi o'quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Shaharlar hududlarini rivojlantirish konsentrik zona modelining Jizzax va Sirdaryo viloyatlari shaharlarida mos kelmasligi shahar tarmoqlari yaxlit tizim sifatida shakllanmaganligi to'g'risidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligida Jizzax va Sirdaryo viloyatlari shaharlari hududlarini rivojlantirishda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 29-maydagi 01/00-03/10-4338-son ma'lumotnomasi). Natijada, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari shaharlarining ixtisoslashuvini, ijtimoiy va ishlab chiqarish sohalari hududiy tashkil etish va ularni rivojlantirish dasturlarini takomillashtirish imkoniyatini bergan;

Geografik balandlik mintaqalari bo'yicha Jizzax va Sirdaryo viloyatlari shahar va shaharchalari joylanishi, aholisi tabiiy harakati, ulardagi geodemografik va iqtisodiy geografik qonuniyatlar ushbu hududlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadlarida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 29-maydagi 01/00-03/10-4338-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur viloyatlardagi shahar aholi manzilgohlarida urbanizatsiya darajasini ko'tarish bilan bog'liq hududiy siyosatga oid dasturlarni takomillashtirish imkonini bergan;

Jizzax viloyatida urbanizatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni eng kichik

kvadratlar usuliga asoslangan holda ko'p omilli regressiya tenglamasi yordamida ishlab chiqilgan modeli Jizzax viloyatida urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 29-maydagi 01/00-03/10-4338-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur model viloyatdagi shahar aholi manzilgohlarida urbanizatsiya darajasini ko'tarish bilan bog'liq dasturlarni takomillashtirish imkoniyatini bergan;

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni urbanizatsiya darajasi va hududiy urbanistik tarkibi, shahar va shaharchalarining demografik tarkibi, shahar aholi manzilgohlarining mintaqalar bo'yicha joylanishi kartalari O'zbekiston Milliy atlasining Jizzax va Sirdaryo viloyatlari kartalarini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi 2023-yil 15-maydagi 03-03-164-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Milliy atlasining mazmunini boyitish, ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish imkoniyatini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy amaliy konferensiyalarda, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, shundan 5 tasi respublika va 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tuzilishi jihatdan kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 176 bet, shundan bevosita matn qismi 120 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ta'kidlangan, uning dissertatsiya bajarilgan Oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi qayd etilgan, ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning amaliyotda joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Shaharlar rivojlanishi va joylanishini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari**", deb nomlangan birinchi bobida shaharlar rivojlanishi va joylanishining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Bunda Yevropa, AQSH va MDH mamlakatlari olimlarining fikrlari, tadqiqotlarining mazmuni keltirilgan va o'zaro taqqoslangan. Unga ko'ra shahar aholi manzilgohlari joylanishi va rivojlanishi muammolari, shaharsozlik nazariyalari, shaharlarni rivojlantirishda E.Govard, E.Burges, V.Kristaller, X.Xoyt, S.Kulin, F.Perru A.Lyosh, K.Doksiadis, F.Gibbert kabi olimlarning nazariya va modellari kiritilgan. Bugungi kundagi urbanizatsiya muammolarining ko'rinishi, shahar aholi manzilgohlarining shakllanishi va

rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar keltirilgan.

Olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi shaharlar to'ri, tarkibi, iyerarxiyasi, urbanistik tarkibi, resurs shaharlari hamda shaharlarning funksional tarkibi yildan-yilga o'zgarib bormoqda. Mamlakatda urbanizatsiya jarayonlari so'nggi yillarda o'n ikki viloyatdan o'ntasida pasayish kuzatilib, bu jarayonlar uning past rivojlanishini ko'rsatmoqda. Respublikada 2009-yilda ko'plab yangi shaharchalarning paydo bo'lishi viloyatlar urbanistik tarkibining maydalashishiga olib keladi, natijada, qishloq aholi manzilgohlarida ham urbanizatsiya jarayonlari rivojlanib bormoqda.



**1-rasm.** Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar aholi manzilgohlarining balandlik bo'yicha joylanishi kartasi (karta mualliflik nusxasi 1:750000 masshtabda tuzilgan)

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari shakllanishi va rivojlanishida geografik omillar roli yuqoridir. Respublikada vodiylar va aholisi zich yashaydigan hududlarga nisbatan qo'riq va bo'z yerlardagi shaharlarning joylanishi va rivojlanishi murakkabroq kechganligini aynan shu iqtisodiy rayonda yaqqol kuzatish mumkin. Qo'riq va bo'z yerlarning o'zlashtirilishi tufayli paydo bo'lgan shahar va shaharchalarning yerlari unumdorligi pastligi va zaxlashganligi, bu shaharchalarning kelajakda rivojlanishiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Shaharlarning hududiy tashkil etilishi ham boshqa iqtisodiy rayonlardan farq qiladi. Farg'ona va Toshkent iqtisodiy rayonlari hududlaridagi shaharlarga qaraganda, Mirzacho'l iqtisodiy rayonida shahar aholi manzilgohlarining asosiy qismi uning hududidan o'tadigan temir yo'l va avtomobil yo'llariga yaqin va uning atrofida

joylashganligi, chekka hududlarida shahar aholi manzilgohlarining kamligi kuzatiladi. Albatta, bunday sharoit shahar aholi manzilgohlarining rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Respublikaning urbanizatsiya darajasini oshirish maqsadida ko'plab chora tadbirlar olib borilayotgan bir vaqtda, yangicha ko'rinishdagi urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi ro'y berayotganligini va uning davom etishini hisobga olgan holda, Mirzacho'l iqtisodiy rayonida hududlar urbanizatsiya jarayonlarining ko'rinishi, uning geografik xususiyatlariga qarab baholandi. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy rayonda urbanizatsiya jarayonlarining ko'rinishi, urbanizatsiya rivojlanishining o'ziga xos hududiy xususiyatlarini, shahar aholi manzilgohlari doirasida tipologiyalashtirildi. Binobarin, shunga ko'ra, iqtisodiy rayon hududi ikkita guruhga, ya'ni: cho'l hududlar va adir hududlar shahar va shaharchalariga ajratildi (1-rasm). Bu guruhlardagi shahar aholi manzilgohlari bir-biridan joyning tabiiy xo'jalik xususiyatiga asoslanganligi (cho'l, adir), hududiy rivojlanishiga ko'ra, tubdan bir-biridan farq qilishi bilan ko'zga tashlanadi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni cho'l mintaqasida shaharlarning asosiy qismi joylashgan bo'lib, ularning soni 8 ta (Gagarin, Do'stlik, Paxtakor, Guliston Yangiyer, Sirdaryo, Shirin, Baxt) shaharlarini tashkil qilib, jami shaharlar sonidagi ulushi 72,7% ni, aholi soni esa bu shaharlarda 250,0 ming kishini (2022-y), jami aholi sonidagi ulushi esa 49,4% ni tashkil qilmoqda. Cho'l mintaqasidagi shaharchalar soni ham ko'p bo'lib, ular soni 48 ta hamda jami shaharchalardagi ulushi 71,7% ga teng. Mazkur shaharchalarda iqtisodiy rayon shaharchalaridagi aholining 72,4% istiqomat qiladi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni adirli hududlar mintaqasidagi shaharlarga Jizzax, G'allaorol hamda Dashtobod shaharlarini kiritish mumkin. Bundan tashqari, adirli hududlar mintaqasidagi shaharchalarda jami shaharchalardagi aholining 27,6% yashaydi. Bular ichida Novqa, Oqtosh, Pishag'ar, Baxmal, Usmat kabi shaharchalar tipik adirli hududlardagi shaharchalar bo'lib, ular kelajakda asosan rekreatsiya-sog'lomlashtirish markazi sifatida rivojlanishi mumkin.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni Jizzax va Sirdaryo viloyatlari tumanlari urbanizatsiya darajasi bilan aholiga xizmat ko'rsatish hajmi (I-sektor), sanoat ishlab chiqarish hajmi (II-sektor), iqtisodiyotda band aholi soni (III-sektor) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik Korrelyatsiya-Spirmen koeffitsiyenti orqali aniqlandi. Natijada, Jizzax viloyatida urbanizatsiya darajasi va aholiga xizmat ko'rsatish hajmi o'rtasidagi bog'liqlik 0,95, Sirdaryo viloyatida esa 0,84 ga teng bo'lgan holda eng yuqori darajani tashkil etdi.

Urbanizatsiyalashuv darajasi bilan II va III sektorlarda o'zaro aloqadorlik koeffitsiyenti: mos ravishda 0,93; 0,91 ga teng. Bundan ko'rinadiki, Jizzax viloyati tumanlarida urbanizatsiya darajasi bilan mazkur tarmoqlarda band bo'lgan aholi o'rtasida aloqadorlik kuchi sezilarli darajada baland bo'lgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida bu ko'rsatkich biroz pastroq, ya'ni 0,87; 0,84 ni tashkil qilmoqda. Sirdaryo viloyatida Jizzax viloyatiga nisbatan biroz kichik bo'lgan holda, ammo band bo'lgan aholi o'rtasida aloqadorlik sezilarli darajada mavjud ekanligi kuzatildi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayonidagi Jizzax va Sirdaryo viloyatlari singari qo'riq va bo'z yerlar bilan bog'liq bo'lgan shaharlar rivojlanishi ancha sekin kechmoqda.

Shuningdek, shaharlarining hududiy tashkil etilishi ham boshqa iqtisodiy rayonlardan farq qiladi. Fargʻona va Toshkent iqtisodiy rayonlari hududlaridagi shaharlarga qaraganda, Mirzachoʻl iqtisodiy rayonida unday emas, iqtisodiy rayon shahar aholi manzilgohlarining asosiy qismi uning hududidan oʻtadigan temir yoʻl va avtomobil yoʻllariga yaqin joylashganligi, chekka hududlarida shahar aholi manzilgohlarining kamligi kuzatiladi. Albatta, bunday sharoit shahar aholi manzilgohlarining rivojlanishida muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

1-jadval.

**Mirzachoʻl iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalarining funksional turlari boʻyicha guruhlanishi (2022-y)**

Shahar funksiyasi	Shaharlar soni	Shaharlar nomi	Aholi soni	Shaharchalar soni	Shaharchalar nomi	Aholi soni
Maʼmuriy hududiy markazlar	<u>6</u> 54,5	Jizzax, Guliston, Doʻstlik, Gagarin, Paxtakor, Gʻallaorol, Sirdaryo	<u>407476</u> 77,3	<u>15</u> 22,5	Gʻoliblar, Usmat, Uchtepa, Zarbdor, Zafarobod, Yangiqishloq, Zomin, Yangiobod, Boyovut, Dehqonobod, Xovos, Navroʻz, Sayxun, Paxtaobod, Sardoba	<u>213011</u> 36,9
Sanoat shaharlar	<u>5</u> 45,5	Shirin, Dashtobod, Yangiyer, Baxt	<u>119164</u> 22,7	<u>3</u> 4,4	Oqtosh, Gandumtosh, Jizzaxlik	<u>30316</u> 5,2
Resurs shaharlar				<u>3</u> 4,4	Marjonbuloq, Qoʻytosh, Uchquloq	<u>20842</u> 3,6
Agroindustrial shaharchalar				<u>46</u> 68,7	Gulbahor, Moʻgʻol, Novqa, Alamli, Tongotar, Baxmal, Lalmikor, Qangʻliobod, Abdukarim, Chuvilloq, Mulkanlik, Qorayantoq, Qangʻli, Toqchilik, Yom, Navroʻz, Sirgʻali, Pishagʻar, Boʻston, Fayzobod, Sharq yulduzi, Paxtazor, Mirzadala, Yorqin, Pitalikent, Nurafshon, Gulzor, Savot, Fargʻona, Andijon, Markaz, Bekat, Doʻstlik, Sohil, Shoʻroʻzak, Paxtakon, Xoʻlkar, Beshbuloq, Ulugʻbek, Xalqakoʻl, Oqoltin, Quyosh, Malik, Ziyokor, J.Mamanov, Gulbahor	<u>311766</u> 54,3
jami	<u>11</u> 100		<u>526640</u> 100	<u>67</u> 100		<u>575935</u> 100

**Izoh\*** Kasr surʼatida - shaharlar soni hamda aholi soni maxrajida - foizi. Jadval Oʻzbekiston Respublikasi davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

**«Mirzachoʻl iqtisodiy rayoni shahar aholi manzilgohlarining ijtimoiy-demografik vaziyatidagi tarkibiy oʻzgarishlar», deb nomlangan ikkinchi bobida**

iqtisodiy rayon shahar aholi manzilgohlari soni funksional turlari va klassifikatsiyasidagi o'zgarishlar, shaharlari aholi soni, dinamikasi va tarkibining hududiy xususiyatlari, shaharlar aholisining tabiiy va mexanik harakati tadqiq etildi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayonida 78 ta shahar aholi manzilgohlari, shundan 11 ta shahar va 67 ta shaharcha joylashgan bo'lib, hududning urbanizatsiya darajasi 45,4% ni tashkil qiladi. Iqtisodiy rayonning shaharchalar tarkibidagi eng ko'p ulushga ega bo'lgan shaharchalari agroindustrial shaharchalardir, bu shaharchalarga mintaqadagi shaharchalar jami aholisining 54,3 foizi to'g'ri keladi. Mazkur shaharchalardagi aholi asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi hamda bu shaharchalarning ko'rinishi qishloq ko'rinishdadir.

Iqtisodiy rayonda ma'muriy-hududiy markaz funksiyasini bajaradigan shaharlarga Jizzax, Guliston, Do'stlik, Gagarin, Paxtakor, G'allaorol kabi shaharlar kiradi. Bu shaharlar viloyat markazlari hamda tuman markazlari vazifalarini bajaradi. Mazkur shaharlarda iqtisodiy rayondagi jami shahar aholisining 77,3 foizi yashaydi. Ma'muriy-hududiy markaz funksiyasini bajaradigan shaharchalar soni esa 15 ta bo'lib, bular ham tuman markazlari vazifasini bajaradi hamda ularda jami shaharchalar aholisining 36,9 foizi istiqomat qiladi.

Iqtisodiy rayon sanoat shaharlariga Sirdaryo, Shirin, Dashtobod, Yangiyer, Baxt shaharlari kiradi. Sanoat biroz rivojlangan shaharchalarga Oqtosh, Gandumtosh, Jizzaxlik kabi shaharchalarni hududdagi yangi tashkil topgan shaharchalar ichidan alohida olib ko'rsatish mumkin.

2-jadval.

**Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalarining aholi soni bo'yicha guruhlanishi (2010-2022 yy)**

Shahar va shaharchalar aholisi soni	2010-yil				2020-yil				2022-yil			
	soni	foizda	aholi, ming kishi	foizda	soni	foizda	aholi, ming kishi	foizda	soni	foizda	aholi, ming kishi	foizda
2000-5000	39	50,0	128513	15,7	31	39,8	111840	11,2	28	36,0	102399	9,7
5000-10000	12	15,4	82957	10,1	18	23,1	124725	12,5	21	26,9	145103	13,8
10000-20000	19	24,3	244295	29,8	19	24,4	280515	28,1	19	24,3	291919	27,8
20000-50000	6	7,7	159085	19,5	8	10,3	242922	24,2	8	10,2	252468	24,0
50000-100000	1	1,3	58274	7,1	1	1,2	69605	7,0	1	1,3	72515	7,0
100000-250000	1	1,3	146714	17,8	1	1,2	171734	17,0	1	1,3	186870	17,7
jami	78	100	819838	100	78	100	1001341	100	78	100	1051274	100

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar aholi manzilgohlarida aholi soni 2-5 ming kishilik shaharchalar soni eng katta ulushga ega ekanligi kuzatildi. Mazkur

shaharchalar soni 2010-yilga nisbatan 2022-yilda qisqarib borgan. Holbuki, bu shaharchalar 5-10 ming kishilik shaharchalar tarkibining kengayishiga ham sababchi bo'lmoqda, chunki 2-5 ming kishilik shaharchalarda aholi soni ko'payib 5-10 ming kishilik shaharchalar toifasiga o'tmoqda. Iqtisodiy rayon shaharlar iyerarxiyasida 10-20 ming kishilik shaharchalar tarkibida o'zgarish kuzatilmaydi. Faqatgina 20-50 ming kishilik shaharchalar tarkibi 2010-yilda 6 ta bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib esa 8 ta shaharni tashkil qilmoqda, o'rta va yirik shaharlar tarkibida deyarli o'zgarish kuzatilmaydi.

Iqtisodiy rayonda shahar aholisi ko'payishining yuqori ko'rsatkichlari Baxmal, Jizzax, Paxtakor, Oqoltin, Sayxunobod va Guliston tumanlaridagi shahar va shaharchalarda ko'zga tashlanadi. Arnasoy, Zafarobod, Forish, Sirdaryo va Mirzaobod tumanlaridagi shahar va shaharchalarda aholi soni dinamikasida o'sish sustroq deyin mumkin.


Tadqiqot obyekti shahar aholisi o'sishida ma'lum hududiy tafovutlar mavjud bo'lib, ular shaharlar tabiiy sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga bog'liq holda birmuncha farq qiladi. Shaharcha maqomini olgan 53 ta qishloqlar shahar mezonidagi me'yoriy ko'rsatkichlarga javob bera olmaydi. Yangi shaharchalarning ayrimlarida jumladan, G'oliblar, Qang'liobod, Uchtepa, Yuksalish, Pistalikent, Yangiobod, Sardoba, Sohil va boshqalarda shahar hosil qiluvchi tarmoqlar mavjud. Ammo, qolgan aksariyat yangi shaharchalarda sanoat, transport, aholiga xizmat ko'rsatish kabi sohalarni rivojlantirishni taqozo etadi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab Mirzacho'l iqtisodiy rayoni hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida o'zlashtirilgan hududlar geodemografik rivojlanishi, hududiy urbanistik tarkibi yetarlicha tadqiq etilmagan. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni viloyatlari, tumanlari, shaharlari ijtimoiy-demografik taraqqiyotini o'rganish Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy rayon shaharlarining demografik vaziyatini aholi tabiiy ko'payishining yuqoriligi, tashqi migratsiyaning salbiy oqibatga ega ekanligi, aholi jinsiy tarkibining tenglashib borishi kabilar belgilaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishining asosiy istiqbol yo'nalishlari**», deb nomlanadi. Mazkur bobda iqtisodiy rayon shaharlarining ijtimoiy-demografik rivojlanishi va muammolari o'rganildi, iqtisodiy rayon shaharlari rivojlanishining asosiy istiqbol yo'nalishlari belgilandi.

Tadqiqot davomida Jizzax viloyatida urbanizatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni Cheddok shkalasi bo'yicha korrelyatsiya bog'lanishi eng kichik kvadratlar usuliga asoslangan holda ko'p omilli regressiya tenglamasi yordamida STATA 14 dasturida modellashtirildi. Bunda Jizzax viloyatida shahar aholisi sonining 100 ming kishiga ortishi urbanizatsiya jarayonini 6,8% birlikka oshishiga hamda qurilish ishlari hajmining bir trillion so'mga o'sishi urbanizatsiya jarayonini 3% o'sishi bilan kuzatilishi aniqlandi. Ushbu model urbanizatsiya jarayoni o'zgarishining 96,7% ni izohlaydi, qolgan 3,3% esa modelda keltirilmagan yashirin omillar hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tadqiqotning nol gipotezasini rad etib

alternativ gipotezani qabul qilish mumkin, ya'ni shahar aholisi soni hamda qurilish ishlari hajmi haqiqatan ham urbanizatsiya jarayoni o'sishiga ijobiy ta'siri statistik ahamiyatga ega ekanligi empirik jihatdan tasdiqlandi.




**2-rasm.** Jizzax viloyatida urbanizatsiya jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning (Cheddok shkalasi bo'yicha) korrelyatsiya bog'lanishi

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalar miqyosida aholi soni 2020-2050 yillarga mo'ljallangan prognozlar amalga oshirildi. Prognoz natijalariga ko'ra, 2025-yilda aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,56% ni, 2030-yilga borib 1,40% ga, 2050-yilda esa 0,97% gacha tushishi prognoz qilindi. Bu ko'rsatkichlar shaharlar bo'yicha farqlanadi, shu boisdan, ular quyidagicha guruhlandi. Jumladan, birinchi guruhdagi Sirdaryo, Shirin, Do'stlik, G'allaorol shaharlari aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 0,25-0,78% atrofida to'g'ri kelib, bu shaharlarda 2030-yilda, aholi soni 103,1 ming kishi bo'lib, jami shaharlar aholi sonidagi ulushi 16,1% ni tashkil qiladi. Prognozda 2050-yilda esa mos ravishda: 118,0 ming kishi va 13,7% ga oshishi kutiladi. Bu guruh shaharlarining ayrimlarida ekologik sharoitga bog'liq holda, aholi soni tashqi migratsiya ta'sirida kamayib boradi. Binobarin, Shirin va Sirdaryo shaharlarida ekologik holatning yomonligi, aholi o'lim ko'rsatkichlarining boshqa shaharlarga qaraganda, yuqoriligi sababli, aholining o'rtacha yillik ko'payishi sur'ati biroz pastligicha qoladi.

Ikkinchi guruhdagi Jizzax, Paxtakor, Baxt shaharlarida aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 0,78 - 1,56% dan to'g'ri kelgan holda, ushbu shaharlarda tabiiy ko'payish va migratsiya hisobiga aholi soni ortib boradi. Mazkur shaharlar aholisi ulushi 2030-yilda (276,1 ming kishi) 44,2% ga yetadi, 2050-yilda mos ravishda: 355,5 ming kishi yoki 41,3% ni tashkil etadi.

Uchunchi guruhdagi Dashtobod, Yangiyer, Gagarin shaharlarida aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati (1,56-2,34%) yuqoriligi, tabiiy ko'payishning kattaligi va tashqi migratsiyaning kamligi kabi omillar ta'siri bilan belgilanadi. Bu guruh shaharlarining aholisi soni prognoz davrida ortib (110,5 -165,4 ming kishi) shaharlar aholisi sonidagi ulushi 17,7-19,2% ga yetishi kutiladi. Bu yerda Dashtobod va Yangiyer shaharlari aholisi soni o'sishida tabiiy ko'payish asosiy omil bo'lishi

bilan birga, tashqi migratsiya ta'sirining kamligi muhim ahamiyat kasb etadi.



**3-rasm.** Jizzax shahar aglomeratsiyasining kelajakdagi rivojlanishi karta sxemasi (karta mualliflik nusxasi 1:750000 masshtabda tuzilgan)

To'rtinchi guruhga faqatgina Guliston shahri kiradi, bu shaharda kelajakda aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 2,36% ga (2050-y) teng bo'ladi, deb prognoz qilinmoqda. Guliston shahrida aholi sonining o'sishiga avvalo tabiiy ko'payish va qolaversa, qishloq joylaridan ko'plab kishilarning shaharga ko'chib kelishi hisobiga ortib boradi. Shahar hududining kengayishi tufayli ham shahar aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payishi sur'ati yuqori bo'lishini prognoz ishlari ko'rsatmoqda. Guliston shahrining iqtisodiy rayon shaharlari aholisi sonidagi ulushi esa 2030-yilda 20,9%, 2050-yilda 24,6% ni tashkil qilishi uning muttasil ko'payib borishidan dalolat beradi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbol yo'nalishlari quyidagicha belgilandi. Binobarin, G'allaorol, Uchtepa, Dehqonobod, Sirdaryo kabi tuman markazi vazifasini bajarayotgan shahar va shaharchalarda boshqa tuman markazlaridan farqi sanoat salohiyatining katta ekanligidir, hozirgi vaqtda shaharlarda sanoat yanada rivojlanib bormoqda. Ushbu shaharlardan Uchtepa va Dehqonobod shaharlari kelajakda rivojlanib viloyat markazlariga qo'shilib ketishi hamda Jizzax va Guliston shaharlarining kengayishiga olib keladi. G'allaorol shahri juda ham qulay transport va temir yo'l yonida joylashganligi uning kelajakda rivojlanishini tezlashtirib shahar aholisining ko'payishiga olib kelib, kelajakda Jizzax aglomeratsiyasining asosiy o'qiga aylanishi ehtimoli yuqori.

Do'stlik, Paxtakor, Usmat, Zafarobod, Zomin, Boyovut, Sayxun kabi o'rtacha rivojlanishga ega bo'lgan tuman markazlaridagi shahar va shaharchalarda aholi soni kelajakda tabiiy ko'payish va qishloq aholisining qo'shilishi hisobiga ortib boradi. Binobarin, G'oliblar, Zarbdor, Gagarin, Yangiqishloq, Balandchaqir, Navro'z, Sardoba, Paxtaobod, Xovos shahar va shaharchalarning iqtisodiy geografik o'rni noqulay, rivojlanishi va imkoniyatlari ancha cheklangan tumanlar markazidagi shaharchalar toifasiga kiradigan ushbu shahar va shaharchalarning iqtisodiy salohiyati juda past hamda xorijiy investitsiya kiritish uchun qulay muhit mavjud emas. Shuningdek mazkur shaharchalar viloyat markazlaridan uzoqdaligi va rivojlanishning sustligi sababli ham ularga shahar maqomi ham berilmagan.

Mirzacho'l iqtisodiy rayonida sanoat tarmoqlarining rivojlanishi natijasida shahar hosil qiluvchi tarmoqlar yanada tez rivojlanib boradi. Bajarilgan prognoz natijalariga ko'ra, iqtisodiy rayon shahar va shaharchalarida mavjud sanoat infrastrukturasi shakllanishi asosida shaharlar to'ri va tarkibi rivojlanishi mumkin. Iqtisodiy rayonda urbanizatsiya jarayonlari natijasida, istiqbolda, yirik shahar, katta shahar, o'rta shaharlar soni ortib borishi kutiladi. Yangi shaharchalarda infrastruktura tizimi rivojlanib, aholi turmush sharoitlari ko'rinishi va shaharlarga xos belgilari ko'rinishi boshlaydi.

## XULOSA

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar aholi manzilgohlari rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

1. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar aholi manzilgohlari rivojlanishi va joylanishining eng muhim xususiyatlari mintaqaning murakkab yer usti tuzilishi, issiq iqlimi, demografik jihatdan aholisining adir shahar manzilgohlarida tez o'sib borishi bilan tavsiflanadi. Bu esa istiqbolda uy-joylar qurilishini kengaytirishni taqozo etadi.

2. Iqtisodiy rayon shaharlar to'ri asosan so'nggi yillarda shakllangan. Biroq, shaharlar tarkibi yanada maydalashdi, iqtisodiy jihatdan zaif bo'lgan Baxmal, Gulbahor, Chuvilloq, Navro'z, Sirg'ali, Sho'ro'zak, Paxtakon kabi shaharchalar soni ko'paydi. Shu bilan birga shaharlarning funksional tipi ham rivojlanib bormoqda. Ayni vaqtda shaharchalarning ko'rinishi va demografik vaziyati oddiy qishloq joylardan ko'p farq qilmaydi. Ayniqsa, tog' va tog' oldi hududlarda joylashgan shahar va shaharchalarda tug'ilish va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari yuqoriligicha saqlanadi.

3. Iqtisodiy rayon shaharchalaridagi Usmat, Novqa, Alamli, Marjonbuloq, Gandumtosh, Zarbdor, Fayzobod, Zomin, Boyovut, Sayxun, Dehqonobod, Ziyokor shaharchalarida aholi ko'payishida tug'ilishning yuqorligi (30-39,9%) shuningdek, Baxmal, Pishag'ar, Zafarobod, Yangiobod, Navro'z shaharchalarida juda yuqoriligi (40% yuqori) kuzatiladi. Aholi tarkibida tug'ilishning yuqori ko'rinishi kelajakda bu shaharchalarda uy-joy muammolari, aholi tarkibida ishsizlikning ko'payishi, unumdor qishloq xo'jalik yerlarining uy-joy qurish maqsadida qisqarishi kabi muammolarining paydo bo'lishiga jiddiy ahamiyat berish talab etiladi.

4. Iqtisodiy rayon shaharlar to'ri rivojlanmaganligi bois, shaharchalar funksional

tarkibini takomillashtirish, kichik sanoat korxonalarini ko'paytirish, aholiga xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish zarurdir. Buning uchun Mirzacho'l iqtisodiy rayonida turli yiriklikdagi shahar aholi manzilgohlarining rivojlanishini talab qiladi. Aynan rayonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, asosan, shaharlar orqali amalga oshirilishini hisobga oladigan bo'lsak, shahar aholi manzilgohlari rolini yanada oshirish maqsadga muvofiqdir.

5. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni urbanistik tarkibida o'rta bo'g'in shaharlari sust rivojlangan. Prognoz natijalari ham ushbu toifa shaharlar sinfining kuchayishini ko'rsatmayapti. Binobarin, "yarim o'rta" shaharlar hisobidan, masalan G'allaorol, Gagarin, Do'stlik, Sirdaryo, Zomin, Dashtobod, Yangiyer shaharlarini viloyatlar darajasidagi o'sish qutb va markazlari sifatida jadal rivojlanishini ta'minlash maqsadga muvofiq. Bunda ushbu shaharlarning tabiiy sharoit va resurslar bilan ta'minlanganligi va qulay transport geografik o'ringa ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

6 Jizzax shahar aglomeratsiyasi istiqbolda rivojlanishi respublika va Mirzacho'l iqtisodiy rayonida o'ziga xos mavqeiga ega bo'lishi mumkin. Biroq, uning istiqbolda hududiy va funksional rivojlanishi ancha cheklangan; bu yerda aglomeratsiyani tortuvchi shahar Dashtobod shahrining uzoqligi, aglomeratsiyaning kelajakda kengayishi esa Paxtakor, Do'stlik va G'allaorol shaharlari yo'nalishida bo'lib, ko'proq qimmatli sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarini egallash hisobidan bo'lishi mumkin. Shu bois, G'allaorol, Paxtakor va Do'stlik shaharlarini rivojlanishini tezlashtirish zarurdir. Kelajakda shakllanishi kutilayotgan Jizzax aglomeratsiyasining rivojlanishi va uning mintaqa urbanizatsiyasidagi mavqei asosan uning iqtisodiy salohiyatini yuksalishi bilan bog'liq bo'lib qoladi.

7. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni Aydar - Arnasoy va Tuzkon ko'llari atrofidagi Forish tumani Darboza, Omonkeldi, Egizbuloq, Do'stlik hamda Arnasoy tumanidagi Tinchlik va Cho'lquvar, Zafarobod tumanidagi Chimqo'rg'on va Lolazor qishloq aholi manzilgohlarida turizm infrastrukturasi rivojlantirilsa, bu hududlarda ham kelajakda, turistik shaharchalar paydo bo'lish imkonini oshiradi. Marjonbuloq, Qo'ytosh va Uchquloq kabi resurs shaharlarning kelajakda rivojlanishini tabiiy resursga bog'liqligini kamaytirib, boshqa sanoat tarmoqlarini (aholiga xizmat ko'rsatish sohasi va ishlab chiqarish tarmoqlarini) tashkil qilish va rivojlantirish zarurdir.

8. Ko'p omilli regressiya tenglamasi yordamida STATA 14 dasturi asosida modellashtirilishi natijasida Jizzax viloyatida urbanizatsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi 15 turdagi iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarning urbanizatsiya jarayonlari bilan qay darajada bog'liqligi aniqlashtirildi. Olingan natija Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi urbanizatsiya darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
УЗБЕКИСТАНА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**МУСАЕВ БЕКЗОД МУРАДОВИЧ**

**ЭКОНОМИКО - ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ И  
РАЗМЕЩЕНИЯ ГОРОДОВ МИРЗАЧУЛЬСКОГО  
ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА**

**11.00.02 – Экономическая и социальная география**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/Gr197.**

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** **Тожиева Зулхумор Назаровна**  
доктор географических наук, профессор

**Официальные опоненты:** **Маматкулов Абдурашид Вахидович**  
доктор экономических наук, профессор

**Курбанов Пахлавон Рустамович**  
кандидат географических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится 24 октября 2023 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Тел.: (99871) 227-12-24; факс: (99871) 246-53-21; 246-02-24. E-mail: [ik-geografiya.nuuz@mail.ru](mailto:ik-geografiya.nuuz@mail.ru). Факультет Географии и геоинформационных систем, Национального университета Узбекистана).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован за №149 Адрес: 100174, г.Ташкент, ул. Университетская, 4. тел. (+99871) 246-67-71).

Автореферат диссертации разослан: 10 октября 2023 года.  
(Протокол реестра №55 от 10 октября 2023 года).

**Ш.М.Шарипов**

Председатель Научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
д.г.н., доцент

**К.А.Хакимов**

Учёный секретарь Научного совета  
по присуждению учёных  
степеней, д.ф.г.н. (Phd)

**М.Т.Миракмалов**

Председатель научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.г.н. доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Глобализация, происходящая в мире, а также активизация международной миграции, стремительное развитие урбанизации являются существенным фактором экономического развития стран, а также возникновения различных экономических и социально-экологических проблем в урбанизированных регионах. В «Стратегии Организации Объединенных Наций в области устойчивого развития городов на период до 2030 года» определены задачи, направленные на предотвращение эскалации экономико-демографических, социально-экологических, транспортных и многих других проблем в городах<sup>1</sup>. Особую актуальность в решении этих задач, приобретает проведение территориальных исследований, посвященных изменениям, происходящим в городах, глобальной индустриализации, промышленных центрах и быстрому развитию городов, их планированию.

В мире уделяется большое внимание исследованиям в этом направлении, включая устойчивое социально-экологическое развитие городов путем выявления факторов, влияющих на развитие городов и их территориальных особенностей. В связи с этим, важное значение имеют исследования, направленные на совершенствование территориально-демографического состава городских поселений и функций городов, повышение природного, социально-экономического потенциала городов, повышение роли географических факторов, влияющих на их развитие и местоположение.

В нашей республике проводятся ряд реформ, направленных на дальнейшее развитие городов, городской инфраструктуры и достигнуты значительные положительные результаты. В новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи по «дальнейшему совершенствованию политики урбанизации для улучшения условий жизни населения в регионах, внедрению индекса «комфортность городов», оценивающего комфортность образа жизни населения в городах, цифровизации городов, повышению качества строительных и проектных работ и развитию городов в соответствии с концепцией «Умный город»<sup>2</sup>. В связи с этим, важное значение приобретают научные исследования, направленные на изучение экономико-географических особенностей развития и размещения городских поселений на вновь освоенных территориях, обеспечение их устойчивого экономического роста за счет их комплексного освоения.

Данное диссертационное исследование, в определенной степени, способствует выполнению задач, установленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 10 января 2019 года № ПФ-5623 «О мерах по коренному совершенствованию процессов урбанизации» и от 4 июня 2019

---

<sup>1</sup><https://unhabitat.org/>

<sup>2</sup>О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli Farmoni.

года № ПФ-5738 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию городов республиканского подчинения», а также в Постановлении Кабинета Министров от 5 января 2016 года № 3 «О мерах по дальнейшему совершенствованию порядка разработки градостроительных документов по развитию и застройке территорий городов и городских поселений» и других связанных с данной деятельностью нормативных правовых документах.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики I. «Демократическое духовно-этическое и культурное развитие, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Научные основы исследования развития и размещения городов, были заложены такими зарубежными учеными, как И.Тюннен, А.Сория, А.Вебер, Э.Говард, П.Геддес, Э.Берджес, В.Кристалл, Х.Хойт, С.Кулин, Ф.Перру А.Лёш, Дж.Готтман, К.Доксиадис К.Линч, Р.Мерфи, Ф.Гибберт, У.Алонсо и другие. В их исследованиях рассмотрены вопросы разработки научно обоснованных теорий развития и размещения городов, а также их теоретико-методологические основы.

